

YASHIL

IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

GREEN ECONOMY AND DEVELOPMENT

Social, Economic, Technological, Scientific and Popular Science Journal

2026-YIL / SENTABR /
9-SON, II-QISM

Google
scholar

RePEc
RESEARCH PAPERS
IN ECONOMICS



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

*Elektron nashr. 2026-yil, sentabr.
II-qism*

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoiraz Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxonovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhridinov Zafarjon Fakhridin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyea Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukirimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy
jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va
taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

TIJORAT BANKLARIDA KREDIT RISKLARINI BAHOLASH VA MUAMMOLI KREDITLARNI BARVAQT ANIQLASHNING SUN'YI INTELLEKTGA ASOSLANGAN MENEJMENT MODELINI TAKOMILLASHTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI	14
Alovuddin Jamolov	
YASHIL TRANSPORT: BARQAROR RIVOJLANISH UCHUN IMKONIYAT VA ISTIQBOLLAR.....	19
Quliyev Begimqul Melikovich	
SAMARQAND VILOYATIDA MAHALLIY BUDJETLARDAN FOYDALANISH ISTIQBOLLARI	25
Uzakova Kamola Bexzodovna	
O'ZBEKISTONDA EKOTURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI VA ISTIQBOLLARI	31
Xolmurodova Moxichehra Dilmurodovna	
THE IMPACT OF FOREIGN DIRECT INVESTMENT ON ECONOMIC GROWTH IN UZBEKISTAN: EVIDENCE FROM AN ARDL BOUNDS TESTING APPROACH (2000–2024)	36
Ortikov Olloberdi Muzaffar o'g'li	
Rajabova Malika	
O'ZBEKISTONDA KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISH MUAMMOLARI VA ULARNI BARTARAF ETISH MEXANIZMLARI	44
Rustamova Dildora Jamshid qizi	
THIS STUDY EXAMINES BEIJING'S EXPERIENCE IN PROMOTING CROSS-BORDER E-COMMERCE IN TASHKENT FROM THE PERSPECTIVE OF REGIONAL COOPERATION	50
Wang Jiahao	
DORI VOSITALARIGA OID AXBOROTLARNI BUXGALTERIYA HISOBI VA HISOBOTLARIDA AKS ETTIRISH USLUBIYATINI TAKOMILLASHTIRISH	58
Yodgorov Xushvakt Mansurovich	
AGROSANOAT MAJMUINI MOLIVAVIY QO'LLAB-QUVVATLASHDA JAMLANMA DARAJA VA KANALLARARO TAKRORLANISHNI O'LCHASH METODIKASI: «YASHIL» YO'NALISHLAR MISOLIDA	63
Xudaynazarov Bekzod Akramovich	
ПУТИ ПОВЫШЕНИЯ КАЧЕСТВА АКТИВОВ И СТАБИЛЬНОСТИ КРЕДИТНОГО ПОРТФЕЛЯ В КОММЕРЧЕСКИХ БАНКАХ	69
Баймуратова Зина Акилбековна	
O'ZBEKISTONDA INVESTITSIYAVIY MUHITNI YANADA RIVOJLANTIRISH VA INFLYATSIYANING SALBIY OQIBATLARINI KAMAYTIRISH YO'NALISHLARI	75
Niyozov Asad Qosimovich	
YASHIRIN IQTISODIYOTNING NAZARIY EVOLYUTSIYASI VA UNI BAHOLASHNING ZAMONAVIY ILMIY YONDASHUVLARI	80
Afenov Nursultan Nugmatillayevich	
ARTIFICIAL INTELLIGENCE AND COMPETITIVE ADVANTAGE IN HIGHER EDUCATION: OPPORTUNITIES AND CHALLENGES.....	86
Boynazarova Iroda Mahmud qizi	
GREEN BONDS IN UZBEKISTAN: OPPORTUNITIES, INSTITUTIONAL DEVELOPMENT AND BARRIERS TO SUSTAINABLE FINANCE	92
Umarova Zulaykho Tursunovna	
YASHIL INVESTITSIYALARNI JALB QILISH ORQALI BARQAROR IQTISODIY O'SISHNI TA'MINLASH MEXANIZMLARI	97
Teshayev Zafarbek Zokirovich	



RAHBARLIK LAVOZIMLARIDA XOTIN-QIZLAR ULUSHI VA MAVJUD STROTEPLAR TAHLILI	103
Abduraxmonova Feruzabonu Abduraxmon qizi	
ARTIFICIAL INTELLIGENCE AND COMPETITIVE ADVANTAGE IN HIGHER EDUCATION: OPPORTUNITIES AND CHALLENGES.....	109
Boynazarova Iroda Mahmud qizi	
KATTA HAJMLI IQTISODIY MA'LUMOTLAR (BIG DATA) SHAROITIDA EKONOMETRIK BAHOLASH USULLARINING NAZARIY TRANSFORMATSIYASI.....	115
Zarikeyeva Miyasar Maratovna	
EFFECTIVE MECHANISMS FOR MANAGING ORGANIZATIONAL ECONOMIC SUSTAINABILITY IN THE PROCESS OF JOB OPTIMIZATION.....	121
Odilov Jakhongir Akram ugli	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINI BANK KREDITLARI ORQALI MOLIVAVIY QO'LLAB-QUVVATLASH MEKANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.....	128
Abdullayev Ahrorjon Akmaljon o'g'li	
ZARGARLIK XIZMATLARI BOZORINI RIVOJLANTIRISHDA PERFORMANCE MARKETINGDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI.....	134
Azizova Roxila Baxodir qizi	
IQTISODIYOT NAZARIYASI: NAZARIY ASOSLARDAN AMALIYOTGACHA BO'LGAN IQTISODIY JARAYONLARNI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI	139
Xamdamiy Amriddin Xamdamiy o'g'li	
УПРАВЛЕНИЕ И ПРИНЯТИЕ РЕШЕНИЙ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ.....	145
Taravat Abdul Salam	
ПОВЕДЕНЧЕСКИЙ ПОДХОД В ГОСУДАРСТВЕННОМ УПРАВЛЕНИИ РАЗВИТИЕМ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА: ТЕОРЕТИКО-МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ И КОНЦЕПТУАЛЬНАЯ МОДЕЛЬ	152
Ikrayeva Nodira Burxon kizi	
STOCK MARKET DEVELOPMENT IN UZBEKISTAN, 2023–2026: INSTITUTIONAL REFORM, PRIVATIZATION, AND EVIDENCE FROM PRIMARY EXCHANGE MICRODATA.....	159
Alekperova Dilshodakhon	
Toshkentov Kuvonchbek	
TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINI MOLIVAVIY QO'LLAB-QUVVATLASHDA TIJORAT BANKLARINING O'RNI.....	167
Bozorov Ilyos Isomiddinovich	
TIJORAT BANKLARINING KAPITAL BAZASINI MUSTAHKAMLASHDA ZAMONAVIY MOLIVAVIY INSTRUMENTLARDAN FOYDALANISHNI TAKOMILLASHTIRISH.....	173
Abduraimova Fazilat Hikmatulla qizi	
TIJORAT BANKLARI MOLIVAVIY BARQARORLIGINI BAHOLASHDA YANGI KONSEPTUAL VA USLUBIY YECHIMLAR: SIRKULYAR IQTISODIYOT TAJRIBASI.....	180
Otajanova Shahnoza Shuhratovna	
BANKLARDA RISKLARNI BOSHQARISH, DAROMAD VA NATIJADORLIKNI OSHIRISH	185
Jo'rayev Bekzod Bahodir o'g'li	
INKLYUZIV TA'LIM MUHITINI TA'MINLASHDA UMUMTA'LIM MAKTABLARI MENEJMENTINI HUDUDIY KLASSTERLASH ASOSIDA OPTIMALLASHTIRISH MODEL: TASHKILIY-BOSHQARUV MEKANIZMLARI VA SAMARADORLIK KO'RSATKICHLARI	192
Rajapova Guldona Usman qizi	
FERMER XO'JALIKLARIDA MOLIVAVIY NATIJALARNI BOSHQARISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH: FOYDA SIFATI VA BARQARORLIGINI BAHOLASH YONDASHUVLARI	198
Rashidov Baxadir Yusupovich	
HUDUDLAR RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHDA INVESTITSIALARNING ROLI.....	203
Sapayeva Fazilat Norbayevna	



ERKIN IQTISODIY ZONALARDA EKO-SANOAT PARKLARINI TASHKIL ETISH VA EKOLOGIK TADBIRKORLIKNI BAHOLASH USULLARI	207
Turg'unova Tursunoy Maratovna	
TIJORAT BANKLARIDA JISMONIY SHAXSLARNI KREDITLASHNING TASHKILIY VA HUQUQIY ASOSLARI	212
Aminova Mehriniso Erkinjonovna	
BARQAROR RIVOJLANISH (ESG) PRINSIPLARINING KOMPANIYA BRENDI QIYMATI VA JOZIBADORLIGIGA TA'SIRI	217
Dilfuza Matisakova	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA MOLIVAVIY TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH ORQALI MOLIVAVIY XIZMATLAR SAMARADORLIGINI OSHIRISH	224
Raximova Lolaxon Avazovna	
MEHNAT INTIZOMINING KORXONALAR FAOLIYATINING IQTISODIY SAMARADORLIGIGA TA'SIRI.....	228
Azizova Sayyora Xamidullayevna	
MINTAQA IQTISODIYOTI BARQARORLIGINI TA'MINLASHDA TIBBIY TURIZM XIZMATLARINING EKONOMETRIK BAHOLANISHI.....	237
Yusupova Mexribon Uktamovna	
KICHIK SANOAT ZONALARIDA INVESTITSION FAOLLIKNI OSHIRISHNING RAQAMLI TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMLARINI SHAKLLANTIRISH.....	245
Jo'rayev Po'latjon Komiljon o'g'li	
MAKTABGACHA TA'LIM XIZMATLARI SOHASIDA KICHIK BIZNES RAQOBATBARDOSHLIGINI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI.....	251
Madaminova Feruza Tursunboy qizi	
YASHIL INVESTITSIYALARNING MINTAQAVIY IQTISODIY RIVOJLANISHDAGI O'RNI VA AHAMIYATI.....	259
Raximova Shaxnoza Xamzayevna	
KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISHDA TAYYOR MAHSULOTLAR EKSPORTINI RAG'BATLANTIRISHNING IQTISODIY ASOSLARI VA TA'MINOT YO'LLARI.....	263
Esanov Yusufjon Dilmurod o'g'li	
RAQAMLI IQTISODIYOT: MOHIYATI, XUSUSIYATLARI VA O'ZBEKISTONDAGI RIVOJLANISH TENDENSIYALARI	267
Sultonov Shahzod Shavkat o'g'li	
O'ZBEKISTON BANLARINIGKING YASHIL BANK MAHSULOTLARI TASHKIL QILISH MEXANIZMLARI VA ULARNING BANK IQTISODIY SAMARADORLIGINI SALBIY TA'SIR QILMAGAN HOLATDA MAHSULOTLARINING MOLIVAVIY BARQARORLIK TA'MINLASH YO'LLARI.....	275
Nuriddinov Murodjon Nuriddin o'g'li	
JAHON IQTISODIYOTINING GLOBALLASHUVI SHAROITIDA MILLIY EKSPORT SALOHIYATINI RIVOJLANTIRISHNING MARKETING MEXANIZMLARI.....	281
Jumayeva Zamira Bustonovna	
MARKAZIY OSIYO UCHUN GEOSIYOSIY RISK (GPR) INDEKSINI ISHLAB CHIQISH	285
Qodirova Laylo Otabekovna	
BIRLASHGAN ARAB AMIRLIKLARI STARTAP EKOTIZIMINI BOSHQARISH MODELI VA O'ZBEKISTON UCHUN SABOQLAR.....	289
Elmurod Sodiqov Shomurod o'g'li	
INTEGRATSIYALASHGAN HISOBOTNI SHAKLLANTIRISHNING METODOLOGIK YONDASHUVLARI.....	295
Abduvaliyev Zafar Mahmudovich	
AVTOMOBIL BUTLOVCHI QISMLAR ISHLAB CHIQARISHDA MAHALLIYLASHTIRISH VA TA'MINOT TARMOG'INI DIVERSIFIKATSIYALASH SAMARADORLIGI.....	301
Asadov Elyorbek Kandiayrovich	



INFRATUZILMA TADBIRKORLIK FAOLIYATI UCHUN ZARUR OBYEKTAR, INSTITUTLAR, RESURLAR VA XIZMATLAR MAJMU'I.....	307
Rustamov Sultonbek Bekzadovich	
TURISTIK XIZMATLAR SOHASIDA INVESTITSION JOZIBADORLIK PARADOKSLARI VA ULARNI BARTARAF ETISH MEXANIZMLARI (XORAZM VILOYATI MISOLIDA).....	315
Ollanazarov Bekmurod Davlatmurotovich	
"YASHIL" SANOAT SIYOSATINI BAHOLASHNING XUSUSIYATLARI.....	323
Ismatulloeva Madinabonu Fozil qizi	
BUDJET TASHKILOTLARIDA BUDJET MABLAG'LARI HISOBI VA ULARDAN FOYDALANISH USTIDAN ICHKI AUDITNI TAKOMILLASHTIRISH.....	330
Murtozayeva Xusnora Erkin qizi	



BUDJET TASHKILOTLARIDA BUDJET MABLAG'LARI HISOBI VA ULARDAN FOYDALANISH USTIDAN ICHKI AUDITNI TAKOMILLASHTIRISH

Murtozayeva Xusnora Erkin qizi

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti, Registrator ofisi hisobchi-menejeri

E-mail: mhusnora1995@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada budjet tashkilotlarida budjet mablag'lari hisobini yuritish va ulardan foydalanish ustidan ichki auditni samarali tashkil etishning nazariy, tashkiliy hamda amaliy jihatlarini tadqiq etilgan. Tadqiqotning maqsadi budjet mablag'larining shakllanishi, taqsimlanishi va sarflanishini hisobga olish jarayonlarini takomillashtirish, moliyaviy hisobotlarning ishonchliligi va shaffofligini oshirish hamda riskka asoslangan ichki audit mexanizmlarini rivojlantirishdan iborat. Tadqiqotda tizimli yondashuv, qiyosiy va institutsional tahlil, risklarni baholash, iqtisodiy-statistik tahlil hamda modellashtirish usullaridan foydalanilgan. Natijada budjet hisobi, ichki nazorat va audit jarayonlarini integratsiyalash, raqamli va masofaviy audit vositalaridan foydalanish, moliyaviy xavflarni barvaqt aniqlash hamda audit tavsiyalarining bajarilishini elektron monitoring qilish bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan. Ichki audit samaradorligini moliyaviy xatolarning oldini olish, xavflarni kamaytirish, tavsiyalarining bajarilishi va budjet xarajatlarning natijadorligi asosida baholash zarurligi asoslab berilgan. Taklif etilgan yondashuv budjet mablag'laridan maqsadli va samarali foydalanish, moliyaviy intizomni mustahkamlash, hisobotlarning ishonchliligini oshirish hamda davlat moliyaviy boshqaruvi samaradorligini yuksaltirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: budjet tashkilotlari, budjet mablag'lari, budjet hisobi, moliyaviy hisobot, ichki audit, ichki nazorat, riskka asoslangan audit, moliyaviy xavf, raqamli audit, moliyaviy shaffoflik, xarajatlar samaradorligi, davlat moliyasi.

Abstract. This article examines the theoretical, organizational, and practical aspects of accounting for budget funds in budgetary organizations and the effective organization of internal audit over their use. The study aims to improve the accounting processes related to the formation, allocation, and expenditure of budget funds, enhance the reliability and transparency of financial reporting, and develop risk-based internal audit mechanisms. The research employs a systematic approach, comparative and institutional analysis, risk assessment, economic and statistical analysis, and modeling methods. As a result, proposals have been developed to integrate budget accounting, internal control, and audit processes, apply digital and remote audit tools, identify financial risks at an early stage, and electronically monitor the implementation of audit recommendations. The study substantiates the need to assess internal audit effectiveness based on the prevention of financial errors, reduction of risks, implementation of recommendations, and effectiveness of budget expenditures. The proposed approach contributes to the targeted and efficient use of budget funds, strengthening financial discipline, improving the reliability of financial reporting, and enhancing the effectiveness of public financial management.

Keywords: budgetary organizations, budget funds, budget accounting, financial reporting, internal audit, internal control, risk-based audit, financial risk, digital audit, financial transparency, expenditure efficiency, public finance.

Аннотация. В статье исследованы теоретические, организационные и практические аспекты ведения учета бюджетных средств в бюджетных организациях и эффективной организации внутреннего аудита их использования. Цель исследования заключается в совершенствовании процессов учета формирования, распределения и расходования бюджетных средств, повышении достоверности и прозрачности финансовой отчетности, а также развитии механизмов внутреннего аудита, основанного на оценке рисков. В исследовании использованы системный подход, сравнительный и институциональный анализ, оценка рисков, экономико-статистический анализ и методы моделирования. В результате разработаны предложения по интеграции процессов бюджетного



учета, внутреннего контроля и аудита, применению цифровых и дистанционных инструментов аудита, раннему выявлению финансовых рисков и электронному мониторингу выполнения аудиторских рекомендаций. Обоснована необходимость оценки эффективности внутреннего аудита с учетом предупреждения финансовых ошибок, снижения рисков, выполнения рекомендаций и результативности бюджетных расходов. Предлагаемый подход способствует целевому и эффективному использованию бюджетных средств, укреплению финансовой дисциплины, повышению достоверности отчетности и эффективности управления государственными финансами.

Ключевые слова: бюджетные организации, бюджетные средства, бюджетный учет, финансовая отчетность, внутренний аудит, внутренний контроль, риск-ориентированный аудит, финансовый риск, цифровой аудит, финансовая прозрачность, эффективность расходов, государственные финансы.

KIRISH

Bugungi globallashuv va iqtisodiy transformatsiya sharoitida davlat moliyasini samarali boshqarish, budget mablag'laridan oqilona va maqsadli foydalanishni ta'minlash hamda davlat xarajatlarning ijtimoiy-iqtisodiy natijadorligini oshirish har qanday mamlakatning barqaror rivojlanishini ta'minlovchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Davlat budjeti orqali shakllantiriladigan va taqsimlanadigan moliyaviy resurslar mamlakat iqtisodiyotining turli tarmoqlari, ijtimoiy soha, ta'lim, sog'liqni saqlash, fan, madaniyat, sport, davlat boshqaruvi va boshqa yo'nalishlarni moliyalashtirishning asosiy manbalaridan biridir. Shu sababli budget mablag'larining har bir bosqichda — rejalashtirishdan tortib, ularni sarflash, hisobga olish, hisobotini shakllantirish va natijalarini baholashgacha bo'lgan jarayonlarda samarali boshqarilishi davlat moliyaviy siyosatining ustuvor vazifalaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Budget tashkilotlari davlat moliya tizimining bevosita ishtirokchisi bo'lib, ular tomonidan amalga oshiriladigan xarajatlarning katta qismi davlat budjeti mablag'lari hisobidan moliyalashtiriladi. Mazkur tashkilotlarda mablag'larning qonuniy, maqsadli va samarali sarflanishi nafaqat moliyaviy intizomni ta'minlash, balki davlat tomonidan ko'rsatilayotgan xizmatlarning sifati va natijadorligiga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi. Masalan, ta'lim tashkilotlarida ajratilgan mablag'larning samarali boshqarilishi ta'lim infratuzilmasini rivojlantirish, pedagoglar mehnatini rag'batlantirish va ta'lim sifatini oshirishga xizmat qilsa, sog'liqni saqlash tashkilotlarida moliyaviy resurslarning oqilona sarflanishi tibbiy xizmatlar sifati va aholi salomatligini muhofaza qilish imkoniyatlarini kengaytiradi. Demak, budget mablag'lari hisobining to'g'ri yuritilishi va ichki auditning samarali tashkil etilishi davlat xizmatlarining yakuniy natijalariga ta'sir qiluvchi muhim boshqaruv mexanizmi hisoblanadi. Budget tashkilotlarida buxgalteriya hisobi davlat moliyaviy resurslari harakatini tizimli ravishda qayd etish, umumlashtirish va tegishli moliyaviy hisobotlarda aks ettirish imkonini beradi. Hisob tizimida mablag'larning kelib tushishi, xarajatlarning amalga oshirilishi, debitor va kreditor qarzdorliklar, asosiy vositalar, tovar-moddiy zaxiralar, ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlar, shartnomaviy majburiyatlar hamda boshqa moliyaviy operatsiyalar to'g'risidagi ma'lumotlar shakllantiriladi. Ushbu ma'lumotlarning haqqoniyligi, to'liqligi va o'z vaqtida aks ettirilishi rahbariyat uchun samarali boshqaruv qarorlarini qabul qilishning zarur axborot bazasini yaratadi. Biroq zamonaviy davlat moliyasini boshqarish sharoitida buxgalteriya hisobining mavjudligi va moliyaviy hisobotlarning shakllantirilishi o'z-o'zidan budget mablag'laridan samarali foydalanish kafolatini bermaydi. Moliyaviy operatsiyalar hajmining ortib borishi, davlat xaridlarining kengayishi, elektron to'lov tizimlarining rivojlanishi, axborot oqimlarining ko'payishi va moliyaviy jarayonlarning murakkablashuvi natijasida budget tashkilotlarida turli xil moliyaviy xavflar yuzaga kelishi mumkin. Jumladan, xarajatlarning tasdiqlangan smetaga muvofiq amalga oshirilmaligi, mablag'lardan foydalanishda maqsadlilik va samaradorlik mezonlaridan chetlanishlar, hisob-kitoblardagi tafovutlar, shartnomaviy majburiyatlarning bajarilishidagi nomuvofiqliklar, davlat xaridlarida narx shakllanishi bilan bog'liq xavflar, debitor va kreditor qarzdorliklarning ortishi, inventarizatsiya jarayonlaridagi kamchiliklar hamda moliyaviy hisobotlarda noto'g'ri ma'lumotlarning aks ettirilishi kabi holatlar davlat mablag'laridan foydalanish samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu nuqtayi nazardan, ichki audit budget tashkilotlarining moliyaviy boshqaruv tizimida alohida ahamiyat kasb etadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Budget tashkilotlarida budget mablag'lari hisobini yuritish va ulardan foydalanish ustidan ichki auditni takomillashtirish masalasi davlat moliyasini boshqarish, moliyaviy nazorat, buxgalteriya hisobi, risk-menejment va institutsional boshqaruvning o'zaro kesishgan yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Mazkur masalaning ilmiy-nazariy asoslari mahalliy va xorijiy iqtisodchi olimlar, auditorlar hamda xalqaro professional tashkilotlar tomonidan keng o'rganilgan. Ilmiy adabiyotlarda budget mablag'laridan foydalanish samaradorligi, moliyaviy



intizom, ichki nazorat, auditning mustaqilligi, risklarni boshqarish, moliyaviy hisobotlarning ishonchliligi va davlat xarajatlarning natijadorligi alohida ilmiy yo'nalishlar sifatida shakllangan. Budget tashkilotlarida hisob va audit tizimini takomillashtirish masalasini tadqiq etishda, avvalo, budget mablag'larining iqtisodiy mazmuni va davlat moliyasidagi o'rniga e'tibor qaratish lozim. Budget mablag'lari davlat tomonidan ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarni amalga oshirish uchun yo'naltiriladigan cheklangan moliyaviy resurs bo'lib, ulardan foydalanish jarayonida qonuniylik, maqsadlilik, tejamkorlik, samaradorlik va natijadorlik tamoyillariga rioya etish talab qilinadi. Shu jihatdan budget hisobi nafaqat mablag'larning harakatini qayd etuvchi texnik tizim, balki davlat moliyaviy boshqaruvi uchun zarur bo'lgan axborotlarni shakllantiruvchi muhim institutsional mexanizm sifatida qaraladi. Buxgalteriya hisobi bo'yicha klassik va zamonaviy ilmiy qarashlarda hisob axborotlarining ishonchliligi boshqaruv qarorlarining sifatiga bevosita ta'sir qilishi ta'kidlanadi. Budget tashkilotlarida esa ushbu masala yanada muhim ahamiyat kasb etadi, chunki moliyaviy resurslarning asosiy manbai davlat budgeti hisoblanadi. Demak, hisob tizimidagi xatoliklar nafaqat alohida tashkilotning moliyaviy holatiga, balki davlat moliyaviy resurslaridan foydalanish samaradorligiga ham ta'sir qilishi mumkin. Ichki auditning nazariy asoslarini o'rgangan tadqiqotchilar auditning mazmuni vaqt o'tishi bilan sezilarli darajada o'zgarganini qayd etadilar. An'anaviy yondashuvda ichki audit asosan moliyaviy hujjatlarning to'g'riligi, hisob-kitoblarning qonuniyligi va amalga oshirilgan operatsiyalarning mavjud me'yorga muvofiqligini tekshirish vositasi sifatida qaralgan. Zamonaviy yondashuvda esa ichki audit tashkilotning boshqaruv, risklarni boshqarish va nazorat jarayonlarini baholash hamda ularni takomillashtirishga yordam beruvchi mustaqil va xolis faoliyat sifatida talqin qilinmoqda.

Mazkur evolyutsiya, ayniqsa, Xalqaro ichki auditorlar instituti — The Institute of Internal Auditors (IIA) tomonidan ishlab chiqilgan 2024-yilgi Global Internal Audit Standards hujjatida yaqqol namoyon bo'ladi. Ushbu standartlar ichki auditni strategik rejalashtirish, resurslarni boshqarish, mustaqillik, obyektivlik, professional kompetensiya, risklarni boshqarish va audit natijalarini monitoring qilish bilan uzviy bog'laydi. Standartlar beshta asosiy domenni o'z ichiga oladi: ichki auditning maqsadi, etika va professionallik, ichki audit funksiyasini boshqarish, audit faoliyatini boshqarish hamda audit xizmatlarini amalga oshirish. Mazkur yondashuvdan kelib chiqib, budget tashkilotlaridagi ichki audit faoliyatini faqat nazorat funksiyasi bilan cheklash zamonaviy yondashuvlarning barcha imkoniyatlarini to'liq aks ettirmaydi. Ichki audit tashkilot rahbariyatiga moliyaviy xavflarni aniqlash, ichki nazoratning takomillashtirish talab etiladigan jihatlarini baholash, moliyaviy jarayonlarni takomillashtirish va resurslardan samarali foydalanish bo'yicha maslahat va kafolat beruvchi mexanizm sifatida ham faoliyat yuritishi kerak. Xalqaro amaliyotda ichki auditning mustaqilligi alohida ahamiyatga ega. IIAning Global Internal Audit Standards hujjatida ichki audit funksiyasining mustaqil pozitsiyasi, obyektivligi va boshqaruv organlari bilan samarali aloqasi ichki audit sifatining asosiy shartlaridan biri sifatida ko'rsatilgan.

Adabiyotlar tahlilining yana bir muhim natijasi shundan iboratki, ichki auditni takomillashtirish faqat auditorlik xizmatining o'zini o'zgartirish orqali hal etiladigan masala emas. Buning uchun budget tashkilotining umumiy moliyaviy boshqaruv tizimini izchil takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Buxgalteriya hisobi, ichki nazorat, risklarni boshqarish, davlat xaridlari, moliyaviy rejalashtirish va ichki audit o'rtasida samarali ma'lumotlar almashinuvini yo'lga qo'yish audit faoliyatining samaradorligini yanada oshirishga xizmat qiladi.

Shu sababli zamonaviy yondashuvda "buxgalteriya hisobi → ichki nazorat → risklarni aniqlash → ichki audit → tavsiyalar → monitoring → profilaktika" zanjirini shakllantirish maqsadga muvofiq. Bunday integratsiyalashgan modelda buxgalteriya hisobi ishonchli moliyaviy ma'lumotlarni shakllantiradi, ichki nazorat xatolarning oldini oladi, risk-menejment xavflarni baholaydi, ichki audit esa butun tizimning samaradorligini mustaqil baholaydi. Umuman olganda, o'rganilgan ilmiy va me'yoriy manbalar budget tashkilotlarida budget mablag'lari hisobi va ichki auditni takomillashtirishda uchta asosiy ilmiy tendensiyaning ko'rsatadi. Birinchisi, auditning nazoratdan maslahat va qiymat yaratishga yo'nalishi; ikkinchisi, an'anaviy tekshiruvdan riskka asoslangan auditga o'tish; uchinchisi esa qog'ozga asoslangan auditdan raqamli va ma'lumotlarga asoslangan auditga o'tishdir. Shu bilan birga, mavjud adabiyotlarda ushbu yo'nalishlar ko'pincha alohida-alohida o'rganilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Budget tashkilotlari sharoitida esa budget mablag'lari hisobi, ichki nazorat, risklarni boshqarish, raqamli audit, audit natijalarini monitoring qilish va xarajatlarning natijadorligini yagona integratsiyalashgan model doirasida birlashtirish masalasi yanada chuqurroq tadqiq etilishi lozim. Aynan shu ilmiy bo'shliq mazkur tadqiqotning asosiy yo'nalishini belgilab beradi. Shundan kelib chiqib, ushbu maqolada budget tashkilotlarida budget mablag'lari hisobini takomillashtirish bilan bir qatorda, riskka asoslangan ichki audit, raqamli monitoring, audit tavsiyalarining bajarilishini nazorat qilish va budget xarajatlarning natijadorligini baholashni o'zaro



integratsiyalashgan holda tashkil etish taklif etiladi. Mazkur yondashuv davlat mablag'laridan foydalanishning qonuniyligi bilan bir qatorda, ularning tejamkorligi, samaradorligi va ijtimoiy-iqtisodiy natijadorligini oshirishga xizmat qilishi mumkin.

Mazkur tadqiqotda budget tashkilotlarida budget mablag'lari hisobini takomillashtirish va ulardan foydalanish ustidan ichki audit samaradorligini oshirish masalalari kompleks ravishda ko'rib chiqildi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, zamonaviy sharoitda budget tashkilotlarining moliyaviy boshqaruv tizimini faqat buxgalteriya hisobi yoki an'anaviy moliyaviy nazorat doirasida takomillashtirish yetarli emas. Budget mablag'laridan foydalanish samaradorligini oshirish uchun hisob, ichki nazorat, risklarni boshqarish, ichki audit, raqamli monitoring va natijadorlikni baholash mexanizmlari yagona tizim sifatida shakllantirilishi lozim. Avvalo, tadqiqot natijalarini mavjud ilmiy yondashuvlar bilan taqqoslash shuni ko'rsatadiki, budget tashkilotlarida hisobning asosiy vazifasi faqat amalga oshirilgan moliyaviy operatsiyalarni qayd etishdan iborat emas. Hisob ma'lumotlari boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun ishonchli axborot bazasini yaratishi kerak. Agar budget mablag'larining kelib tushishi, taqsimlanishi va sarflanishi to'g'risidagi ma'lumotlar o'z vaqtida, to'liq va haqqoniy shakllantirilmasa, ichki auditning keyingi bosqichlarida ham sifatli nazoratni amalga oshirish qiyinlashadi. Shu sababli budget hisobi va ichki audit o'rtasidagi axborot aloqalarini kuchaytirish tadqiqotning muhim natijalaridan biri sifatida qaraladi.

Budget hisobi va ichki auditning o'zaro integratsiyasi. Tadqiqot natijalari budget tashkilotlarida buxgalteriya hisobi, ichki nazorat va ichki auditni bir-biridan mustaqil jarayonlar sifatida tashkil etish ularning umumiy samaradorligini cheklashi mumkinligini ko'rsatmoqda. Buxgalteriya hisobi moliyaviy ma'lumotlarni shakllantiradi, ichki nazorat ushbu ma'lumotlar va operatsiyalarning qonuniyligi hamda ishonchligini ta'minlaydi, ichki audit esa mazkur nazorat tizimining samaradorligini mustaqil baholaydi. Shu jihatdan ushbu uchta elementning o'zaro bog'liqligi quyidagi ketma-ketlikda ifodalanishi mumkin:

Buxgalteriya hisobi → Ichki nazorat → Risklarni aniqlash → Ichki audit → Audit tavsiyalari → Monitoring → Tuzatish → Profilaktika.

Mazkur mexanizmning muhim jihati shundaki, har bir keyingi bosqich avvalgi bosqichda shakllangan ma'lumotlardan foydalanadi. Masalan, buxgalteriya hisobi ma'lumotlarining yuqori sifatini ta'minlash risklarni aniqroq baholashga, audit resurslarini ustuvor yo'nalishlarga samarali taqsimlashga hamda audit tavsiyalarining bajarilishini muntazam monitoring qilish orqali aniqlangan holatlarning takrorlanish ehtimolini kamaytirishga xizmat qiladi. Shuning uchun budget tashkilotlarida ichki auditni takomillashtirish masalasini faqat auditorlik xizmatining faoliyatini o'zgartirish bilan cheklash mumkin emas. Tizimning barcha elementlari o'rtasida uzluksiz axborot almashinuvi va javobgarlik mexanizmini shakllantirish zarur.

TAHLIL VA NATIJALAR

Mazkur tadqiqotning ayrim cheklovlari ham mavjud. Birinchidan, ichki audit samaradorligini baholash uchun taklif etilgan IASI indeksidagi koeffitsiyentlar amaliyotdagi empirik ma'lumotlar asosida moslashtirilishi lozim. Turli sohalardagi budget tashkilotlarida risklar tarkibi va ularning moliyaviy ta'siri bir xil emas. Shu sababli ta'lim, sog'liqni saqlash, madaniyat, davlat boshqaruvi va boshqa sohalar uchun ko'rsatkichlarning vaznlari turlicha bo'lishi mumkin. Ikkinchidan, raqamli audit tizimining samaradorligi ma'lumotlarning sifati va axborot tizimlarining integratsiya darajasiga bog'liq. Turli axborot tizimlaridagi ma'lumotlarning o'zaro muvofiqligi va to'liqligini ta'minlash avtomatlashtirilgan tahlil natijalarining ishonchligini oshirishga xizmat qiladi. Uchinchidan, sun'iy intellekt va avtomatlashtirilgan audit vositalaridan foydalanishda algoritmik aniqlik, ma'lumotlar xavfsizligi va maxfiylik bilan bog'liq jihatlarni ham hisobga olish muhimdir. Shu sababli texnologik yechimlar tegishli nazorat va inson ekspertizasi bilan birgalikda qo'llanishi lozim. Kelgusidagi tadqiqotlarda turli toifadagi budget tashkilotlari misolida real ma'lumotlar asosida taklif etilgan modelni sinovdan o'tkazish, IASI indeksining optimal koeffitsiyentlarini statistik usullar yordamida aniqlash, raqamli audit vositalarining iqtisodiy samaradorligini baholash va sun'iy intellekt asosidagi risklarni aniqlash algoritmilarining aniqlik darajasini o'rganish maqsadga muvofiq. Umuman olganda, muhokama natijalari shuni ko'rsatadiki, budget tashkilotlarida budget mablag'lari hisobini va ichki auditni takomillashtirish bir-biridan ajratilgan vazifa sifatida emas, balki yagona moliyaviy boshqaruv tizimini shakllantirish vazifasi sifatida qaralishi kerak. Bunday tizimda buxgalteriya hisobi ishonchli ma'lumotlarni shakllantiradi, ichki nazorat moliyaviy operatsiyalarning qonuniyligi va xavfsizligini ta'minlaydi, risk-menejment xavflarni oldindan aniqlaydi, ichki audit esa ushbu jarayonlarning samaradorligini mustaqil baholaydi. Shuningdek, ichki auditning kelajakdagi modeli "aniqlash → tahlil qilish → oldini olish → monitoring → takomillashtirish" tamoyiliga asoslanishi maqsadga muvofiq. Bunday yondashuv budget mablag'laridan foydalanishda shaffoflikni oshirish, moliyaviy intizomni mustahkamlash, xarajatlarni optimallashtirish va resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish, moliyaviy xavflarni barvaqt aniqlash va davlat xarajatlarning natijadorligini oshirish imkonini beradi.



XULOSA VA TAKLIFLAR

Olib borilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, budget tashkilotlarida budget mablag'lari hisobini samarali tashkil etish va ulardan foydalanish ustidan ichki auditni takomillashtirish davlat moliyaviy boshqaruvi samaradorligini oshirishning muhim shartlaridan biridir. Budget mablag'lari davlatning cheklangan moliyaviy resurslari hisoblanganligi sababli, ularning qonuniy, maqsadli, tejamkor va samarali sarflanishini ta'minlash nafaqat alohida budget tashkilotining, balki butun davlat moliya tizimining muhim vazifasi hisoblanadi. Tadqiqot davomida budget tashkilotlarida buxgalteriya hisobi, ichki nazorat va ichki auditning o'zaro bog'liqligi tahlil qilinib, ushbu yo'nalishlarni alohida jarayonlar sifatida emas, balki yagona integratsiyalashgan moliyaviy boshqaruv tizimi sifatida tashkil etish zarurligi asoslandi. Buxgalteriya hisobi ishonchli moliyaviy axborotni shakllantirsa, ichki nazorat moliyaviy operatsiyalarning qonuniyligi va to'g'riligini ta'minlaydi, ichki audit esa mazkur jarayonlarning samaradorligini mustaqil baholab, mavjud xavflarni aniqlash va ularni kamaytirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining 2013-yil 26-dekabrda O'RQ-360-son "O'zbekiston Respublikasining Budget kodeksini tasdiqlash to'g'risida"gi Qonuni // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. – Rasmiy manba: <https://lex.uz/docs/-2304138>. – Murojaat sanasi: 15.09.2026.
2. O'zbekiston Respublikasining 2016-yil 13-aprelda O'RQ-404-son "«Buxgalteriya hisobi to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqida"gi Qonuni // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. – Rasmiy manba: <https://lex.uz/docs/-2931253>. – Murojaat sanasi: 15.09.2026.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 27-avgustda PF-6300-son "Davlat moliyaviy nazorati tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. – Rasmiy manba: <https://lex.uz/docs/5607471>. – Murojaat sanasi: 15.09.2026.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 10-iyulda PF-100-son "Budget mablag'laridan foydalanish ustidan moliyaviy nazoratni kuchaytirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. – Rasmiy manba: <https://lex.uz/docs/7015258>. – Murojaat sanasi: 15.09.2026.
5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 1-avgustda 416-son "Vazirlik va idoralarning ichki audit xizmati to'g'risidagi namunaviy nizomni tasdiqlash haqida"gi qarori // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. – URL: <https://lex.uz/docs/6136910>. – Murojaat sanasi: 15.09.2026.
6. O'zbekiston Respublikasi moliya vazirining 2022-yil 3-oktabrda 52-son "Ichki audit milliy standartlarini tasdiqlash haqida"gi buyrug'i (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2022-yil 24-oktabrda 3394-son bilan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan) // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. – Rasmiy manba: <https://lex.uz/docs/6251620>. – Murojaat sanasi: 15.09.2026.
7. O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasi. Hisob palatasining 2025-yil yakunlari bo'yicha faoliyat hisoboti [Elektron resurs]. – Toshkent, 2026. – URL: O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasi — rasmiy manba. – Murojaat sanasi: 15.09.2026.
8. The Institute of Internal Auditors. Global Internal Audit Standards [Electronic resource]. – Lake Mary, FL: The Institute of Internal Auditors, 2024. – URL: The Institute of Internal Auditors — Global Internal Audit Standards. – Murojaat sanasi: 15.09.2026.
9. The Institute of Internal Auditors. Assessing the Risk Management Process. 2nd ed. Global Practice Guide [Electronic resource]. – Lake Mary, FL: The Institute of Internal Auditors, 2024. – URL: The Institute of Internal Auditors — Assessing the Risk Management Process. – Murojaat sanasi: 15.09.2026.
10. International Organization of Supreme Audit Institutions (INTOSAI). ISSAI 4000: Compliance Audit Standard [Electronic resource]. – INTOSAI, 2019. – URL: INTOSAI — ISSAI 4000: Compliance Audit Standard. – Murojaat sanasi: 15.09.2026.
11. OECD. Benchmarking Higher Education System Performance. – Paris: OECD Publishing, 2019. – 644 p. – DOI: 10.1787/be5514d7-en. – URL: OECD — Benchmarking Higher Education System Performance. – Murojaat sanasi: 15.09.2026.
12. OECD. Recommendation of the Council on Budgetary Governance: OECD/LEGAL/0410 [Electronic resource]. – Paris: Organisation for Economic Co-operation and Development, 2015. – URL: OECD Legal Instruments — OECD/LEGAL/0410. – Murojaat sanasi: 15.09.2026.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz HAKIMOV

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Hasan MAQSUDOV

2026. № 9/2

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
